



# INNOVATION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

**2026**

**№6**

**ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА**

Научно-практический электронный журнал

**INNOVATIVE ECONOMY**

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



С/БЕРИЕНИКА



# INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNAL

6-jild  
6-son  
Iyun, 2026

June, 2026  
Volume 6  
Number 6

ИННОВАЦИОННАЯ  
ЭКОНОМИКА  
Научно-практический  
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY  
Electronic scientific and  
practical journal



## INNOVATSION IQTISODIYOT

### ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

#### Muassis:

**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

#### Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

#### Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

#### Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

#### TAHRIRIYAT KENGASHI:

##### Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)  
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)  
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)  
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)  
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)  
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)  
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)  
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)  
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)  
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)  
Sadrididdinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)  
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)  
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)  
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)  
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)  
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)  
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

##### Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik  
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor  
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor  
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor  
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor  
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor  
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent  
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor  
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent  
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent  
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent  
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent  
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent  
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent  
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent  
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent  
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)  
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)  
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)  
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

### Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Учредитель:**

**Каршинский государственный технический  
университет**

**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,  
профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в  
электронной форме и публикуется через  
официальный сайт журнала.

*Адрес редакции:*

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: [innoeconomic@kstu.uz](mailto:innoeconomic@kstu.uz)

Научно-практический электронный журнал  
«Инновационная экономика» включён в перечень  
национальных научных изданий на основании  
решения Президиума Высшей аттестационной  
комиссии при Министерстве высшего образования,  
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5  
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по  
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное  
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и  
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

#### Редакционная коллегия:

##### Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик  
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор  
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,  
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский  
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик  
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор  
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.  
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент  
(Национальный исследовательский университет  
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник  
(Российского университета дружбы народов имени  
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент  
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,  
профессор (Национальная академия наук Республики  
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор  
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский  
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор  
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского  
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент  
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем  
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский  
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

##### Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,  
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),  
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti**  
**Economy of the region and industry**  
**Экономика региона и отрасли**



# QISHLOQ XO'JALIGIDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA JAHON MAMLAKATLARI TAJIRIBASI

*Xujakulova Nigora Rustamovna*

## ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

*Хужакулова Нигора Рустамовна*

## GLOBAL EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF FAMILY ENTREPRENEURSHIP IN AGRICULTURE.

*Khujakulova Nigora*

Received: June 2, 2026 Revised: June 6, 2026 Accepted: June 9, 2026 Published: June 30, 2026

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha jahon mamlakatlari tajribasi tahlil qilingan. Xususan, AQSH, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlarda oilaviy fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, davlat siyosati va iqtisodiy rag'batlantirish usullari o'rganilgan. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashdagi o'rni baholangan. Tadqiqot natijasida xorijiy tajribalarni O'zbekiston qishloq xo'jaligiga moslashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** oilaviy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, fermer xo'jaliklari, jahon tajribasi, davlat qo'llab-quvvatlashi, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq rivojlanishi.

**Аннотация.** В данной статье проанализирован мировой опыт развития семейного предпринимательства в сельском хозяйстве. В частности, изучены механизмы государственной поддержки семейных фермерских хозяйств, аграрная политика и экономические стимулы, применяемые в США, Германии, Франции, Китае, Южной Корее и других странах. Особое внимание уделено роли семейного предпринимательства в повышении эффективности сельскохозяйственного производства, обеспечении занятости населения и укреплении продовольственной безопасности. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации по адаптации зарубежного опыта к условиям сельского хозяйства Узбекистана.

**Ключевые слова:** семейное предпринимательство, сельское хозяйство, фермерские хозяйства, мировой опыт, государственная поддержка, продовольственная безопасность, развитие сельских территорий.

**Abstract.** This article analyzes international experience in the development of family entrepreneurship in agriculture. Particular attention is given to the mechanisms of state support, agricultural policies, and economic incentives applied to family farms in the United States, Germany, France, China, South Korea, and other countries. The study examines the role of family entrepreneurship in improving agricultural productivity, creating employment opportunities, and strengthening food security. Based on the findings, scientific and practical recommendations are proposed for adapting international best practices to the agricultural sector of Uzbekistan.

**Keywords:** family entrepreneurship, agriculture, family farms, international experience, government support, food security, rural development.

### ■ KIRISH

Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda jahon mamlakatlarining ilg'or tajribasini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Turli davlatlar, o'zlarining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, oilaviy fermer

xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos modellarini yaratganlar. Bu tajribalar, O'zbekiston sharoitiga mos ravishda tahlil qilinib, mavjud muammolarni hal qilishda yangi g'oyalar va yondashuvlarni taklif etishi mumkin.



Yevropa Ittifoqi mamlakatlari (masalan, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya) qishloq xo'jaligida oilaviy fermer xo'jaliklarining eng rivojlangan modellaridan birini namoyish etadi. Bu mamlakatlarda oilaviy fermer xo'jaliklari asrlar davomida shakllangan bo'lib, ular nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, balki qishloq hududlarini saqlash, ekologik barqarorlikni ta'minlash va qishloq madaniyatini asrab-avaylashda ham muhim rol o'ynaydi. Yevropa Ittifoqining umumiy agrar siyosati (CAP – Common Agricultural Policy) doirasida oilaviy fermerlarga katta miqdorda subsidiya va moliyaviy yordamlar ajratiladi. Bu yordamlar hosildorlikni oshirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi landshaftini saqlash va fermerlarning daromadlarini barqarorlashtirishga qaratilgan.

Shuningdek, bu mamlakatlarda kooperatsiya harakati juda rivojlangan bo'lib, fermerlar o'z mahsulotlarini birgalikda sotish, xomashyo xarid qilish va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha kooperativlarga birlashganlar. Bu ularning bozorlardagi pozitsiyasini mustahkamlaydi va savdo xarajatlarini kamaytiradi.

#### ■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuning o'rganilish darajasi tahlil qilinganda, xorijlik olimlardan R.M.Razzaque, M.J.Ali va P.Mather (2020) kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ boshqaruv islohotlarining oilaviy kompaniyalarga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilganlar. Ular o'z tadqiqotlarida mulkdorlik strukturasi hamda korporativ boshqaruv mexanizmlaridagi o'zgarishlar oilaviy biznes barqarorligining asosiy omili ekanligiga alohida e'tibor qaratganlar<sup>11</sup>.

MDH olimlaridan A.N.Asaul<sup>12</sup> fikricha, tadbirkorlik- bu iqtisodiy faoliyatning o'ziga xos turi bo'lib, uning mohiyati bozor almashinuvi orqali o'z a'zolarining o'ziga xos ehtiyojlariga bo'lgan jamiyat talabini rag'batlantirish va qondir ishdan iborat bo'lib, bozor muvozanati buzilishi orqali raqobatdosh ustunliklarga ega bo'lishga qaratilgan. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik ma'lum bir sub'ektlar va tadbirkorlik faoliyatining ob'ektlari ishtirokini o'z ichiga oladi [2].

I.V.Ukrainsevaning so'zlariga ko'ra<sup>13</sup>, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar – bu xo'jalik faoliyatini olib boradigan va to'liq javobgarlikni o'z zimmlariga oladigan tadbirkorlarning o'zlari [3].

S.Elmirzayev (2019) esa korporativ boshqaruv modellarini o'rganish davomida alohida korporativ boshqaruvning oila modelini ajratib ko'rsatgan va alohida xususiyatlariga e'tibor qaratgan<sup>14</sup> [4].

Shuningdek, o'zbek olimlaridan A.O'lmasov va N.To'xliyevlarning tadbirkorlikni “daromad keltiradigan yoki naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasb-kor,

mashg'ulot) sohibkorlik - tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish”, “...tadbirkorlik-pul topish maqsadida mas'uliyatni zimmaga olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish”<sup>15</sup> [5], deb ta'riflashgan. Ushbu ikki ta'rif bir-biriga juda o'xshash bo'lib, ularning bir-birlaridan farqlanishini ko'rsatib berolmaydi. Shu asosda, shunday fikrga kelish mumkinki, A.O'lmasov ushbu ikki tushuncha mazmuniga o'z qarashlarini rivojlantirib, biznes tushunchasiga ancha to'laroq ta'rif beradi.

#### ■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlik holati va dinamikasi hamda xorij tajribasi o'rganildi va tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida fanning dialektika, iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, induksiya, deduksiya, mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

#### ■ TAHLIL VA NATIJALAR

AQSh va Kanadada oilaviy fermer xo'jaliklari, ayniqsa, yiriklashtirilgan va mexanizatsiyalashtirilgan shakllarda keng tarqalgan. Bu mamlakatlarda fermer xo'jaliklari yuqori texnologiyalar, zamonaviy agronomik usullar va ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanadi. Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimi juda rivojlangan bo'lib, tabiiy ofatlar va bozor narxlari o'zgarishidan kelib chiqadigan zararlarni qoplashda fermerlarga katta yordam beriladi. Shuningdek, tadqiqot institutlari va universitetlar qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiyalarni joriy etish, yangi ekin navlari va chorva zotlarini yaratishda faol ishtirok etadi. U yerda oilaviy fermer xo'jaliklarining biznes rejalashtirishi va boshqaruviga katta e'tibor beriladi<sup>16</sup> [6].

Osiyo mamlakatlari tajribasi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, Xitoyda oilaviy tadbirkorlik (asosan dehqon xo'jaliklari) aholining asosiy bandlik manbai hisoblanadi. Janubiy Koreyada esa qishloq xo'jaligida yuqori texnologiyalar (aqlli fermerlik) va vertikal fermerlik kabi innovatsion yechimlar keng qo'llaniladi. Oilaviy xo'jaliklarga maxsus dasturlar orqali texnologiyalarni sotib olishda moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Hindistonda esa mikrokreditlash tizimi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish uchun maxsus bozorlar tashkil etish orqali kichik oilaviy xo'jaliklar qo'llab-quvvatlanadi.

O'zbekistonga xos xulosalar va tavsiyalar xorijiy tajribalardan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozim. Xususan:

Texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish: Yevropa va Shimoliy Amerika tajribasi asosida oilaviy fermer xo'jaliklarida zamonaviy sug'orish tizimlari, aqlli fermerlik usullari hamda energiya tejankor

<sup>11</sup> Rushdi M.R. Razzaque, Muhammad Jahangir Ali, Paul Mather. Corporate governance reform and family firms: Evidence from an emerging economy // Pacific-Basin Finance Journal. Volume 59, February 2020.

<sup>12</sup> Asaul A. N. / Organizatsiya predprinimatelskoy deyatelnosti: uchebnik dlya vuzov. / A. N. Asaul. – 4-e izd. – SPb.: Piter, 2013. – 352 s.: il. ISBN 978-5-496-00066-6

<sup>13</sup> Ukrainseva I. V. / Predprinimatelskaya deyatelnost i yeye osobennosti v selskom xozyaystve [Elektronnyy resurs] / I. V. Ukrainseva, A. I. <https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

Avdeyeva // Nauchnometodicheskiy elektronnyy jurnal «Konsept». – 2017. – 100–103 s. – URL: <http://ekoncept.ru/2017/770442.htm>

<sup>14</sup> Elmirezayev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.

<sup>15</sup> To'xliyev N., O'lmasov A. Ishbilarmonlar lug'ati. – T.: Qomuslar bosh tahririya, 1993. – 314 b.

<sup>16</sup> Sulaymonov, A. (2020) Flexible Working Practices: Urgency or Future? Modern Economy, 11, 1342-1350. doi: 10.4236/me.2020.117095.



texnologiyalarni joriy qilish uchun moliyaviy va texnik yordamni kuchaytirish;

Kooperatsiya va klaster tizimini kengaytirish: Yevropa tajribasidan foydalangan holda oilaviy tadbirkorlarni qishloq xo'jaligi kooperativlariga birlashtirish orqali mahsulotlarni sotish, xomashyo xarid qilish va xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini oshirish. Shuningdek, klasterlar tarkibida qayta ishlash korxonalarini tashkil etish.

moliyaviy mexanizmlarni diversifikatsiya qilish: Mikroreditlash tizimini yanada takomillashtirish, garovsiz kreditlar ajratish imkoniyatlarini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

Ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish: Qishloq xo'jaligi institutlari hamda oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali yangi ilmiy ishlanmalarni oilaviy fermer xo'jaliklariga tatbiq etish va ilm-fan bilan amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash.

sug'urta tizimini rivojlantirish: AQSh va Kanada tajribasi asosida qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash tizimini takomillashtirish, bu orqali oilaviy tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligini oshirish.

Jahon mamlakatlari tajribasi qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda keng ko'lamli yechimlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu tajribalarni.

O'zbekiston sharoitiga moslashtirgan holda joriy etish, sohani yanada barqaror va samarali rivojlantirishga xizmat qiladi<sup>17</sup>[7].

Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda oilaviy tadbirkorlik subyektlari asosan kichik va o'rta biznes shaklida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda bunday oilaviy korxonalar kichik yoki o'rta biznes darajasidan yirik va ko'p yo'nalishli kompaniyalargacha rivojlanishi mumkin. Bunga Walmart, Ford Motor Company, Samsung, LG, BMW, Bosch, Motorola, Lowe's hamda Hyundai kabi oilaviy bizneslar misol bo'la oladi.

Family Firm Institute ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda jahondagi eng yirik 500 ta kompaniyaning qariyb 17 foizi Osiyoda shakllangan oilaviy biznes korxonalari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalarning kapital samaradorligi boshqa tadbirkorlik shakllariga nisbatan yuqoriroq ekanligi bilan ajralib turadi.

Xitoy tajribasiga e'tibor qaratilsa, ushbu mamlakatda oilaviy tadbirkorlik subyektlarining shakllanish tarixi boshqa davlatlarga qaraganda nisbatan qisqa ekanligi bilan ajralib turadi. Shunga qaramay, oilaviy tadbirkorlik Xitoy iqtisodiyotining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. 1978-yilda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlardan so'ng tadbirkorlik subyektlariga xususiy mulkka egalik qilish huquqi berildi. Hozirgi kunda Xitoyda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalarning 30 foizdan ortig'i hamda xususiy biznes subyektlarining qariyb 90 foizi oilaviy tadbirkorlik shakliga mansub hisoblanadi.

Oilaviy bizneslarning aksariyati shaharlarda faoliyat yuritadi. Shu sababli ular Xitoy iqtisodiyotida eng muhim ish o'rni yaratuvchi omillardan biri sanaladi. Xitoy shaharlarida tashkil etilgan ish o'rinlarining 38,9 foizi aynan oilaviy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa rivojlanayotgan davlatlarda, ayniqsa ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlik bandlik muammosini hal etishning samarali vositalaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Palgrave Macmillanning "Asian Business Series" ilmiy tadqiqotlari natijalariga ko'ra, Xitoy hukumatining 1990-yillardagi iqtisodiy islohotlaridan keyin oilaviy tadbirkorlik subyektlari yuqori samaradorlik evaziga sezilarli darajada rivojlangan. Asosan kichik va o'rta biznes shaklida faoliyat boshlagan ko'plab oilaviy korxonalar keyinchalik yirik biznes tuzilmalariga aylangan. Masalan, dastlab kichik ion batareyalari ishlab chiqarish bilan shug'ullangan BYD bugungi kunda nafaqat Xitoyda, balki jahon miqyosida elektromobil ishlab chiqaruvchi eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, Country Garden, Midea, Shagang Group hamda New Hope Group kabi oilaviy bizneslar ham katta muvaffaqiyatlarga erishgan.

Kichik va o'rta biznes subyektlari uchun eng muhim masalalardan biri ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar uchun bozor topish, ularni sotish hamda xaridorlarga sifatli yetkazib berish hisoblanadi. Ichki bozorning cheklanganligi va raqobatning tobora ortib borishi kichik hamda o'rta hajmdagi oilaviy korxonalarning yangi bozorlarga kirib borishida turli qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida Xitoy hukumati kichik va o'rta korxonalarning yangi bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlovchi samarali tizimni shakllantirdi. Bunday mexanizmlardan biri onlayn savdo platformalari va logistika xizmatlarini rivojlantirish hisoblanadi. So'nggi yigirma yil davomida hukumat yetkazib berish infratuzilmasini takomillashtirish uchun katta hajmdagi moliyaviy mablag'larni yo'naltirdi. Natijada bugungi kunda Xitoy iqtisodiyotida Taobao, Tmall, AliExpress, 1688.com, JD.com hamda Pinduoduo kabi yirik elektron savdo platformalari faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, SF Express, Cainiao Network, JD Logistics, YTO Express, ZTO Express hamda STO Express kabi qulay va nisbatan arzon logistika xizmatlari ham shakllandi. Hukumat tomonidan ushbu infratuzilmalarga kiritilgan yirik investitsiyalar natijasida kichik va o'rta biznes subyektlari o'z mahsulotlarini iste'molchilarga arzon va tez yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xitoyda tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishga xizmat qiluvchi infratuzilmalar, elektron savdo maydonchalari hamda logistika xizmatlari mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Natijada 2019–2022-yillar oralig'ida Xitoy onlayn savdo platformalari orqali amalga oshirilgan savdo hajmi 171 foizga oshib, 3 trillion 85 milliard AQSh dollariga yetgan. 2023-yilda esa ushbu

<sup>17</sup> Rondi E., De Massis A., Kotlar J. Unlocking innovation potential: A typology of family business innovation postures and the critical role of the family system //Journal of family business strategy. – 2019. – T. 10. – №. 4. – C. 100236.



ko'rsatkichning 3 trillion 331 milliard dollarga yetishi  
prognoz qilingan<sup>18</sup>[8].

1-jadval

2025-yilda dunyoning top-25 oilaviy kompaniyalari tahlili<sup>19</sup>

| No | Kompaniya nomi                      | Egalik qiluvchi oila nomi      | Egalik qiluvchi oila ulushi | Tashkli etilgan yili | Mamlakat       | Yillik daromad (min. AQSh dollari) |
|----|-------------------------------------|--------------------------------|-----------------------------|----------------------|----------------|------------------------------------|
| 1  | Walmart Inc.                        | Walton                         | 47,1                        | 1962                 | AQSh           | 569151                             |
| 2  | Volkswagen AG                       | Porsche and Piech              | 53,3                        | 1937                 | Germaniya      | 284544                             |
| 3  | Berkshire Hathaway Inc.             | Buffet                         | 37,3                        | 1955                 | AQSh           | 276094                             |
| 4  | Schwarz Group                       | Schwarz                        | 100                         | 1930                 | Germaniya      | 142499,7                           |
| 5  | Ford Motor Co.                      | Ford                           | 40                          | 1903                 | AQSh           | 136341                             |
| 6  | Gunvor Group Ltd.                   | Tornqvist                      | 88,4                        | 2000                 | Shveytsariya   | 135000                             |
| 7  | Cargill Inc.                        | Cargill, MacMillan             | 90                          | 1865                 | AQSh           | 134426                             |
| 8  | ALDI Group                          | Albrecht                       | 100                         | 1948                 | Germaniya      | 133113,1                           |
| 9  | Tata Sons Private Ltd.              | Tata                           | 66                          | 1868                 | Hindiston      | 128000                             |
| 10 | Bayerische Motoren Werke AG (BMW)   | Quandt, Klatten                | 46,7                        | 1916                 | Germaniya      | 126508,6                           |
| 11 | Comcast Corp.                       | Roberts                        | 33,3                        | 1963                 | AQSh           | 116385                             |
| 12 | Koch Industries Inc.                | Koch                           | 100                         | 1940                 | AQSh           | 115000                             |
| 13 | Dell Technologies Inc.              | Dell                           | 72                          | 1984                 | AQSh           | 86670                              |
| 14 | SK Group                            | Chey                           | 32,7                        | 1953                 | Janubiy Koreya | 82545,6                            |
| 15 | Country Garden Holdings Co. Ltd.    | Yang                           | 62                          | 1992                 | Xitoy          | 82338,6                            |
| 16 | ArcekorMittal S.A.                  | Mittal                         | 37,6                        | 1976                 | Lyuksemburg    | 76571                              |
| 17 | LVMH Meet Hennessy                  | Amault                         | 47,4                        | 1987                 | Fransiya       | 73029,7                            |
| 18 | Roche Holding AG                    | Hoffmann, Oeri, Duschmaie      | 45                          | 1896                 | Shveytsariya   | 72234,8                            |
| 19 | China Evergrande Group              | Hui                            | 65,8                        | 1996                 | Xitoy          | 71751,6                            |
| 20 | Pacific Construction Group Co. Ltd. | Yan                            | 100                         | 1995                 | Xitoy          | 64037,7                            |
| 21 | Reliance Industries Ltd.            | Ambani                         | 47,4                        | 1973                 | Hindiston      | 63822,2                            |
| 22 | JBS S.A.                            | Bařista                        | 43,2                        | 1953                 | Brazilya       | 62942,3                            |
| 23 | LG Electronics Inc.                 | Koo                            | 30,8                        | 1947                 | Janubiy Koreya | 62730,2                            |
| 24 | A.P. Muller-Maersk                  | Muller, Maersk, McKinney Uggla | 69,9                        | 1904                 | Daniya         | 61787                              |
| 25 | INEOS Group Holdings S.A.           | Ratcliffe, Reece, Currie       | 100                         | 1998                 | Lyuksemburg    | 61000                              |

Xitoyda xususiy tadbirkorlarning xalqaro bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlaydigan maxsus tizim faoliyat yuritadi. Ushbu tizim tadbirkorlarga xorijiy davlatlardagi standartlar, bo'xona tartiblari, logistika va transport imkoniyatlari haqida ma'lumotlar taqdim etadi hamda ularga amaliy ko'mak ko'rsatadi.

Oilaviy korxona ishtirokchilari sifatida oila boshlig'i, uning turmush o'rtog'i, farzandlari va nabiralari, ota-onasi hamda mehnatga layoqatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari qatnashishi mumkin. Shuningdek, bolalari va nabiralarning turmush o'rtoqlari, tug'ishgan va o'gay aka-uka hamda opa-singillari, ularning turmush o'rtoqlari va farzandlari,

<sup>18</sup> Rondi E., De Massis A., Kotlar J. Unlocking innovation potential: A typology of family business innovation postures and the critical role of the family system //Journal of family business strategy. – 2019. – T. 10. – №. 4. – C. 100236.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

<sup>19</sup> <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>



tog'a, amaki, amma hamda xolalar ham oilaviy korxona faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega hisoblanadi.

Oilaviy korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yishda oila a'zolarining ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Uzbekistan Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, oilaviy korxona tarkibida oila boshlig'i, uning turmush o'rtog'i, farzandlari, nabiralari, ota-onasi hamda boshqa yaqin qarindoshlar faoliyat olib borishi mumkin. Bu esa oilaviy biznesni tashkil etish va yuritishda qarindoshlik aloqalariga asoslangan hamkorlikni mustahkamlaydi.

Oilaviy korxonalarning bunday shaklda faoliyat yuritishi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy ustunliklarni yuzaga keltiradi. Avvalo, oila a'zolarining yagona manfaat asosida birgalikda ishlashi mehnat samaradorligini oshiradi va biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Oila ichidagi o'zaro ishonch va mas'uliyat hissi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, boshqaruv tizimini samarali tashkil etish hamda daromadlarni oqilona taqsimlash imkonini yaratadi.

Oilaviy korxona o'z faoliyatini boshqa tadbirkorlik shakllaridan farqli ravishda mulk huquqi yoki boshqa qonuniy asoslarda o'ziga tegishli bo'lgan turar joylarda hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarda amalga oshirishi mumkin. Bunga ishlab chiqarish obyektlari, xo'jalik binolari va boshqa turdagi inshootlar ham kiradi.

Davlat oilaviy korxonalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi. Shuningdek, davlat organlari oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va uni qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirishi lozim. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, davlat organlari foydalanilmayotgan yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish faoliyatini tashkil etish maqsadida oilaviy korxonalarga ijara asosida taqdim etishi mumkin.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, oilalar egaligida faoliyat yurituvchi kompaniyalar orasida yetakchi o'rinni Walmart egallaydi. Bundan tashqari, Volkswagen, Berkshire Hathaway, Ford Motor Company, BMW, Koch Industries, Dell Technologies hamda LG Electronics kabi mashhur korxonalar ham oilaviy biznes negizida shakllangan.

Statistik ko'rsatkichlarga qaralsa, Walmart 2025-yilda qariyb 560 milliard AQSh dollari miqdorida daromad olgan bo'lsa, reytingda 25-o'rinni egallagan INEOS Group esa 61 milliard AQSh dollari miqdorida foyda qayd etgan. Shuningdek, ushbu ro'yxatdan AQSh, Germaniya va Fransiya kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar kompaniyalari bilan bir qatorda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya hamda Lyuksemburg kabi tez sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlar korxonalari ham o'rin olgan.

Kompaniyalarga egalik qiluvchi oilalar tarkibida Walton, Porsche, Buffett, Schwarz, Ford, Tata, Koch va Dell kabi jahonga mashhur oilalar mavjud bo'lib, ular ushbu korxonalarni boshqarishda muhim rol

o'ynamoqda. Ushbu kompaniyalarning faoliyat muddatiga nazar tashlansa, 25 yillik tarixga ega korxonalar bilan bir qatorda bir yarim asrdan ortiq faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni ham uchratish mumkin. Bu esa oilaviy biznes bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik tadbirkorlik shaklidan yirik biznes darajasigacha rivojlanganini hamda oilaviy biznes moliyasining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etayotganini ko'rsatadi<sup>20</sup>[10].

#### ■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida qator samarali ishlar olib borilmoqda. Natijada turli yo'nalishlarda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari surilmoqda:

- Agrar sohada o'z faoliyatini yo'lga qo'yishni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda dehqon xo'jaliklari ulushini ko'paytirish maqsadida uzoq muddatga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ijaraga olib, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan dehqon xo'jaliklari hamda kichik biznes subyektlariga 50 million so'mgacha garovsiz kredit ajratish tizimi keng tatbiq etilmoqda;

- Mahallalarda, jumladan tashkil etilgan mikromarkazlarda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, hunarmandchilik, kooperatsiya va kasanachilik faoliyatini kengaytirishga qaratilgan loyihalar uchun hokim yordamchilarining tavsiyasiga asosan beriladigan kreditlar hajmi amaldagi 225 million so'mdan 300 million so'mgacha oshirilmoqda. Bunda loyiha tashabbuskori kamida 30 foiz ulush bilan qatnashishi talab etiladi;

- Dasturlar asosida avval olingan kreditlardan unumli foydalanib, o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan hamda kredit to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirgan kichik biznes vakillariga faoliyatini yanada kengaytirish uchun ushbu kreditlardan qayta foydalanish imkoniyati yaratiladi;

- Imtiyozli kreditlardan foydalanib, daromad olishga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanayotgan fuqarolar qonunchilikda belgilangan tartib asosida o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida e'tirof etiladi;

- Hokim yordamchisining tavsiyasiga binoan kredit mablag'ining 10 million so'mgacha bo'lgan qismi, hunarmandlar uchun esa 20 million so'mgacha bo'lgan qismi bank kartalariga o'tkazib beriladi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlik agrar sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. AQSH, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining katta qismi oilaviy fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqariladi. Ushbu mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlik davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlash, subsidiyalar ajratish, sug'urta tizimini

<sup>20</sup> Chorievich B. A. Issues of Formation of Entrepreneurial Skills in Graduates of Higher Education //European Multidisciplinary Journal of Modern Science. – 2022. – T. 6. – C. 183-187.



rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali rag'batlantiriladi.

Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida oilaviy fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi siyosatining markaziy bo'g'ini sifatida qaralib, ularga keng ko'lamdagi moliyaviy va institutsional yordam ko'rsatiladi. Yaponiya va Janubiy Koreyada esa yer resurslaridan samarali foydalanish, kooperatsiya asosida faoliyat yuritish va innovatsion texnologiyalarni qo'llash oilaviy xo'jaliklarning yuqori samaradorligini ta'minlamoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rushdi M.R. Razzaque, Muhammad Jahangir Ali, Paul Mather. Corporate governance reform and family firms: Evidence from an emerging economy // *Pacific-Basin Finance Journal*. Volume 59, February 2020.
2. Asaul A.N./Organizatsiya predprinimatelskoy deyatelnosti: uchebnik dlya vuzov. / A. N. Asaul. – 4-e izd. – SPb.: Piter, 2013. – 352 s.: il. ISBN 978-5-496-00066-6
3. Ukrainseva I. V. / Predprinimatelskaya deyatelnost i ee osobennosti v selskom khozyaystve [Elektronnyy resurs] / I. V. Ukrainseva, A. I. Avdeyeva // *Nauchnometodicheskiy elektronnyy jurnal «Konsept»*. – 2017. – 100–103 s. – URL: <http://ekoncept.ru/2017/770442.htm>
4. Elmirzayev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.
5. To'xliyev N., O'lmasov A. Ishbilarmonlar lug'ati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1993. – 314 b.
6. Sulaymonov, A. (2020) Flexible Working Practices: Urgency or Future?. *Modern Economy*, 11, 1342-1350. doi: 10.4236/me.2020.117095.

7. Rondi E., De Massis A., Kotlar J. Unlocking innovation potential: A typology of family business innovation postures and the critical role of the family system // *Journal of family business strategy*. – 2019. – T. 10. – №. 4. – C. 100236.

8. Chorievich B. A. Issues of Formation of Entrepreneurial Skills in Graduates of Higher Education // *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*. – 2022. – T. 6. – C. 183-187.

9. Sharofova S.A. “Qishloq xo'jaligida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari” *Innovatsion iqtisodiyot / Innovatsionnaya ekonomika / The innovation economy*. Ilmiy-amaliy elektron jurnal (OAK) 2026/1, yanvar. 100-104-betlar.

10. Samieva G.T. “Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash yo'nalishlari”. *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent, 2019.

11. Togaeva D.A. Issues of classification, marking and increasing competitiveness of family enterprises in the service sector. *International multidisciplinary journal for research & development* eissn 2394-6334 Volume 11, issue 01(2024) 17-24 betlar.

#### Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Xujakulova Nigora Rustamovna, Qarshi davlat texnika universiteti, Innovatsion iqtisodiyot kafedrasida dotsenti. / Хужакулова Нигора Рустамовна, Доцент кафедры инновационной экономики Каршинского государственного технического университета. / Khujakulova Nigora, Associate Professor, Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University.

**E-mail:** [nigorakhujakulova86@gmail.com](mailto:nigorakhujakulova86@gmail.com)

**ORCID:** 0009-0001-2936-1972



**INNOVATION**  
**IQTISODIYOT**  
**ILMIY-AMALIY ELEKTRON**  
**JURNAL**

ISSN: 3030-315X



[t.me/kstu\\_uz](https://t.me/kstu_uz)



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225



[www.kstu.uz](http://www.kstu.uz)  
[www.ojs.kstu.uz](http://www.ojs.kstu.uz)